

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## PUXTA BILIM - KORRUPSIYAGA QARSHI KUCH

Mamatojiyev Sharip Ikromovich

“Aholi tomorqalaridan samarali foydalanis” kafedrasida dotsenti, q.x.f.n.

Yoqubjonova Moxira Ilxomjon qizi

Farg’ona davlat universiteti “Uzumchilik, mevachilik va sabzavotchilik” qo’shma fakulteti 20.82-gr. talabasi

### Annotatsiya

Korrupsiya bu jamiyatni turli yo’llar bilan iskanjaga oladigan daxshatli illat hisoblanadi. Korrupsiya bor joyda jamiki yomon illatlar avj ola boshlaydi. Masalan: qonun ustuvorligi buziladi, insonlarni tinch hayotiga tahdid soluvchi ko’plab jinoyatlar va hattoki terrorizm ham avj olishi hech gap emas. Shunga qaramasdan korrupsiya hozirda yer yuzini deyarli barcha mintaqasida uchraydi. Tarixga nazar soladigan bo’lsak, korrupsiyani boshlang’ich o’chog’i birlamchi qabilalar vujudga kelgan davrga borib taqaladi. Bu hol qabilada ma’lum mavqega ega bo’lish uchun qabila sardorlariga sovg’alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O’sha davrlarda bu odatiy holat sifatida qabul qilingan. Lekin davrlar mobaynida bu illat rivojlanib, avj olib kelmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo’rligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma’lum. Chunki bu holat davlatning obro’siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo’rligi qattiq qoralanadi.

**Kalit so’zlar:** korrupsiya, vayronkor kuch, jinoyatchilik, ijtimoiy tengsizlik, noxush hodisalar, daxshatli illat, insoniy jamiyat, birlamchi qabilalar, yetakchi dinlar, qattiq jazo.

Korrupsiya, bu nihoyatda ijtimoiy-siyosiy vayronkor kuch bo’lib, uning oqibatida milliy iqtisodiyotga putur yetadi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, xalqning davlat boshqaruvi hokimiyati organlariga ishonchi yo’qoladi, uyushgan jinoyatchilik kuchayadi, jamiyatda ma’naviyat izdan chiqib boshlaydi. Korrupsiya oqibatida kelib chiqadigan noxush hodisalar ro’yxatini yana davom ettirish mumkin. Korrupsiya



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

buzg'unchilik tabiatiga ega ekani uchun ham insoniy jamiyat qadim zamonlardan boshlab unga qarshi kurashib keldi.

Korrupsiya bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan daxshatli illat hisoblanadi. Korrupsiya bor joyda jamiki yomon illatlar avj ola boshlaydi. Masalan: qonun ustuvorligi buziladi, insonlarni tinch hayotiga tahdid soluvchi ko'plab jinoyatlar va hattoki terrorizm ham avj olishi hech gap emas. Shunga qaramasdan korrupsiya hozirda yer yuzini deyarli barcha mintaqasida uchraydi.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, korrupsiyani boshlang'ich o'chog'i birlamchi qabilalar vujudga kelgan davrga borib taqaladi. Bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu odatiy holat sifatida qabul qilingan. Lekin davrlar mobaynida bu illat rivojlanib, avj olib kelmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qu'roni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.

Islom dinida ham pora harom qilingan, bu borada hadislar ham juda ko'p. Ulardan biri Payg'ambarimizning mana bu davatlaridir: "Pora beruvchiga ham, pora oluvchiga ham Allohning la'nati bo'lsin!". Yana ul zot aytadilar: "Pora beruvchini ham, pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalik qiluvchini ham Alloh la'natlasin!".

Alisher Navoiyning zamondoshi, podshoh Husayn Boyqaroning voizi Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Axloqi muhsiniy" asarida shohzodaga nasihat tariqasida quyidagi pandni bergan edi:

"Ummollardan (ish yurituvchi amaldorlar) pora olishdan ehtiyot bo'lsin. Bilsinki, to bir kishi boshqalardan pora olmasa, boshqaga pora bermaydi. Agar vazir pora olishga sabab bo'lsa, pora olishga ruxsat bergan bo'ladi. Pora berish va pora olish haromdir. Va pora olgan pora bergandan yomonroq bo'ladi, chunki oluvchi beruvchi oldida zabun bo'ladi".



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Korrupsiyani tubdan yo'q qilish juda mushkul ish, lekin unga qarshi mukammal chora tadbirlar qo'llanilsa oylaymizki, uni oz bo'lsada bartaraf qilishga erishgan bo'lar edik. O'ylashimcha, korrupsiyani yo'q qilish bo'yicha chora tadbirlarni avvalambor yuqori davlat organlari va ularda ishlovchi amaldorlardan boshlash kerak, chunki bilamizki korrupsiya ikki va undan ortiq fuqarolar orasida bo'ladi, tabiiyki, oddiy fuqaro davlat ishida ishlovchi amaldorlardan o'zini bir pog'ona pastda ekanligini yaxshi biladi va undan ozgina bo'lsada qo'rqib turadi. Agar amaldor o'z ishiga puxta bo'lsa va qonunlarga amal qilgan holda vijdonan ish yuritsa, oddiy fuqaro ham korrupsiyaga yo'l qo'yadigan ishlarni bajarmaydi, ya'ni o'sha amaldorga pora olib borsa ham olmasligini yaxshi biladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish usullaridan yana biri unga qattiq jazo tayinlash deb o'ylayman. Chunki hozirgi kunda korrupsiya bilan shug'ullanuvchi inson xarom yo'l bilan ko'pgina oddiy fuqarolarni aldab pulini suviste'mol qilmoqda va jazo muddatini o'tab chiqqandan so'ng ham bu ishini davom ettirayotganlari ham bisyor. Shuning uchun ham bu jinoyatchilarni qattiqroq jazoga maxkum qilinsa, yurtimizda korrupsiya oz bo'lsada bartaraf etilgan bo'lar edi.

Bundan tashqari hozirgi kundagi ta'lim sohasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, albatta "supper kontrakt" masalasi oldinga chiqishi tabiiy hol. Bugungi kunda bilimi "0" bo'lgan talabalar oliy o'quv yurtlarida talaygina. Hatto o'zida o'qishga xoxish bo'lmasada, ota - onasi o'qishini istab, bir talay pul to'lab oliy o'quv yurtlariga farzandini o'qishga joylab qo'yayotganlar bir talay. Ya'ni bu bilan nima demoqchiman, oliy o'quv yurtini pul bilan bitirib, diplom bilan ko'chada oddiy taksislik qilayotganlar ham yo'q emas.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha har bir insonni o'z fikri bor. Umumiy qilgan holda fikrimni tugatmoqchiman: O'ylaymanki, hamma insonni qalbidan korrupsiyaga qarshi kurashish tuyg'usi jo'sh urasa, shu ishni ko'rib turib ko'rmaganga olmasa, jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashishga ehtiyoj sezmaydi.

## Foydalanilgan manba'lar

1. <https://mineconomy.uz>
2. <https://anticorruption.uz>
3. <https://adu.uz>

